

**Journal of Social Research in Uzbekistan**

**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**SOME COMMENTS ON THE STUDY OF THE KURDISH PROBLEM IN FOREIGN STUDIES**

*Fatima Nazarova*

*Student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Middle East, Kurdistan, Greater Kurdistan, Iraqi Kurdistan, Mahabad, Kumala, Operation Anfal, KDP, PUK.

**Received:** 07.10.22

**Accepted:** 09.10.22

**Published:** 11.10.22

**Abstract:** This article talks about the study of the Kurdish problem in foreign studies. In the article, it is specially noted that international scientific research has studied the ethnic, ethnopolitical, geographical and geopolitical aspects of the Kurdish problem.

**KURDLAR MUAMMOSINING XORIJIY IZLANISHLARDA TADQIQ ETILISHI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR**

*Fotima Nazarova*

*Talaba*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Yaqin Sharq, Kurdiston, "Buyuk Kurdiston", Iroq Kurdistoni, Mahabad, "Kumala", "Anfal" operatsiyasi, KDP, PUK.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Kurdlar muammosining xorijiy tadqiqotlarda o'rganilishi haqida so'z boradi. Maqolada xalqaro ilmiy izlanishlar kurdlar muammosining etnik, etnosiyosiy, geografik hamda geosiyosiy jihatlarini tadqiq etgani alohida qayd etiladi.

**НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К ИЗУЧЕНИЮ КУРДСКОЙ ПРОБЛЕМЫ В ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ**

*Фатима Назарова*

*Студент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Ближний Восток, Курдистан, Большой Курдистан, Иракский Курдистан, Махабад, Кумала, Операция Анфаль, ДПК, ПСК.

**Аннотация:** В данной статье говорится об изучении курдской проблемы в зарубежных исследованиях. В статье особо отмечается, что в международных научных исследованиях изучались этнические, этнополитические, географические и геополитические аспекты курдской проблемы.

---

**KIRISH**

Jahonning eng “qaynoq” mintaqasi hisoblangan Yaqin Sharq yirik va mintaqaviy kuch markazlarining yangi geosiyosiy o‘yinlari avj olayotgan hududga aylanib bormoqda. Bu borada xalqaro tahlilchilar “Yaqin Sharq xavfsizligi – bu jahon xavfsizligi kalitidir”, degan tamoyilga jiddiy amal qilishni zarur deb ta’kidlashmoqda. Ammo, Yaqin Sharqdagi muammolarning siyosiy-diplomatik yechim topilishi o‘rniga, yangidan-yangi muammolar paydo bo‘lishi holatlari borgan sari kuchayib bormoqda. Natijada xalqaro xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari ham susayib, zamonaviy mintaqaviy muammolarga to‘g‘ri va oqilona xalqaro huquq yondashuv orqali baho berish zaruratini kun tartibiga aylantirmoqda.

Yaqin Sharq mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, milliy-etnik munosabatlarda hal etilmagan ko‘plab muammolar mavjud. Ular orasida yechimi eng murakkab va mushkul muammolardan biri Kurdlar muammosi hisoblanadi. Bugungi kunda milliy-etnik munosabatlarning nazariy asoslarini tadqiq etish, ayniqsa, kurdlar masalasining tub mohiyatini chuqur o‘rganish, shuningdek, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy tendensiyalar istiqbolida kurd omilini to‘g‘ri baholay olish masalalari sharqshunos mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Zeroki, mahalliy tadqiqotlarda ushbu masala juda kam o‘rganilgan tadqiqot mavzulari sirasiga kiradi. Vaholanki, kurdlar muammosi Yaqin Sharqda Falastin-Isroil muammosi bilan darajasi deyarli teng bo‘lgan o‘tkir muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Ushbu muammoning nozikligi va dolzarbligi – kurdlarning o‘z davlatiga ega bo‘lmagan dunyodagi eng katta millat ekanligi, muammoning etno-hududiy, etno-siyosiy, hattoki, etno-diniy jihatlari hamda Turkiya, Eron, Suriya va Iroq singari Yaqin Sharqning muhim davlatlari ichki va tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatishi va eng muhimi Yaqin Sharq geosiyosiy menejerligiga da’vogar bo‘lgan yirik davlatlarning mintaqaga ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanishi singari omillar bilan izohlanadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, garchi Yaqin Sharq mintaqasidagi vaziyat va uning turli jihatlari borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar salmoqli bo‘lsa hamki, aynan kurdlar muammosi bo‘yicha

tadqiqot olib borgan mahalliy olimlar juda sanoqli. Xususan, mahalliy olim Farhod Karimov “*Yaqin Sharq davlatlaridagi etnosiyosiy jarayonlarda kurd omili*” mavzusidagi siyosiy fanlar doktorligi dissertatsiyasi va “*Yaqin Sharqda etnik kurdlar muammosi*” nomli monografiyasida etnik muammolar va ularning nazariy asoslari, kurdlar va Kurdistan muammosining Yaqin Sharq geosiyosiy jarayonlariga ta’siri va ushbu muammoni hal etish masalalari haqida atroflicha tadqiq etiladi. Qolgan izlanishlar esa ilmiy maqola shaklida bo‘lib, muammo bo‘yicha kompleks qarashlarni tadqiq etishga qaratilmagan. Shu jihatdan, kurdlar muammosi borasida xorijiy tadqiqot izlanishlariga murojaat qilish zarurati mavjud.

### ASOSIY QISM

Kurdlarning tarixiy shakllanishi va ularning kelib chiqishiga oid tadqiqotlarning aksariyati asosan xorijiy G‘arb olimlari, turk va rus olimlarining tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xususan, kurdlarning kelib chiqish tarixini yoritishda Mak Duell qalamiga mansub “*Kurdlarning zamonaviy tarixi*”, Maykl Gunterning “*Kurdlarning tarixiy lug‘ati*”, F.Minorskiyning “*Kurdlar*” kitoblari, Aso Burxonning “*Bugungi Iroq Kurdistan*”, N.Bobkinning “*Erondagi kurd ozchiligi holati*” ilmiy maqolalari, shuningdek V.Nikitinning ham “*Kurdlar*” nomli kitobi muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ilmiy ishlarda kurdlar haqida arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar va boshqa qiziqarli adabiyotlar asosida batafsil ma’lumotlarni olish mumkin. Shuningdek, Saya Berzinji, Brigitte E. Hugh, Harriet Allsopp, David Romano, Abbas Vali, Cengis Gunes, Cuma Çiçek, Ömer Gömksel Işyar, S.Ivanov, M.Lazarev, O.Jigalina, Xoshavi Bobakr va boshqa olimlarning ilmiy ishlari Yaqin Sharqdagi kurdlar muammosi, jumladan, Turkiya, Iroq, Eron va Suriya davlatlarining kurdlar masalasidagi siyosati hamda ushbu muammo bilan bog‘liq yirik davlatlar tashqi siyosiy qarashlarini o‘rganishda yaqindan yordam beradi.

Umuman olganda, kurdlar va ular bilan bog‘liq Yaqin Sharqda Kurdistan davlatchiligi tuzilishi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Bu esa mazkur mavzuni kengroq o‘rganishni, uning Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlarga ta’siri masalalarini ilmiy asoslar bilan tahlil etishni taqozo etadi.

Kurdshunos olimlardan biri Stefano Torelli qaydlariga ko‘ra, kurdlar tarixan forslar singari hind-yevropalik etnik guruh bo‘lib, ular turli xil madaniy va til omillari bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, o‘zlarining tillariga ega va forslar tili bilan bir oiladan kelib chiqqan[1].

Tadqiq etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, “Kurdiston” atamasi milodning XII asrida Saljuqiylar davrida paydo bo‘lgan. Professor Assaad Shamsi shunday yozadi: “Kurdiston (kurdlar yashaydigan joy) so‘zi ma’muriy geografik atama sifatida milliy va demografik ma’noga ega, bu kurdlar tomonidan ixtiro qilinmagan, aksincha, u Sulton hukmronligi davrida (milodiy 1118-1157-yillarda Saljuqiy Sanjar) paydo bo‘lgan. U tog‘li mintaqaning g‘arbiy qismini ajratib, Sulaymon Shoh hukmronligi ostidagi alohida davlatga aylantirdi va uni Kurdistan nomi bilan atadi. Bu davlatga

Ozarbayjon va Loriston (Snah, Dinur viloyatlari), Hamadon, Kirmonshoh (Eron) va Zagros tog'laridan g'arbiy hududlar, jumladan Iroq Kurdistonidagi Shahrazur va Koy Sanjak oralig'idagi yerlar kirgan. Kurdlarning zamonaviy tarixini o'rgangan olim Mak Duell ham "Kurdiston" atamasi XII asrda saljuqiylar tomonidan ishlatilgani, uning geogarfik hududi shimolda Aras daryosi, g'arbda Sivas, Erzurum, Marash va Kirkuk atrofidagi Mesopotamiya hududlari, sharqda esa Kirmonshoh shahrini qamrab olganini qayd etadi[2]. "Buyuk Kurdiston" g'oyasi ilk bor siyosiy ma'noda 1880-yilda Shayx Ubaydullo G'oziy tarafidan ilgari surilgan bo'lsa-da, ushbu atama ilmiy adabiyotga XVII asrda yashab ijod qilgan Avliyo Chalabiy tarafidan kiritilgan. Shayx Ubaydullo G'oziy esa Eron va Usmonli qaramog'ida bo'lgan kurdlarni alohida mustaqil davlat bo'lishi yo'lida harbiy harakatlar olib borib, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, lekin bu g'oya kurdlarning xotirasida butun umrga muxrlanib qoladi. "Buyuk Kurdiston" g'oyasi haqida eronlik siyosatshunos olim Muhammad Hofeziniyaning ta'kidlashicha, "Buyuk Kurdiston" tushunchasi kurd millatchilari tarafidan oxirgi vaqtlarda geografik o'laroq O'rta Yer dengizi sharqidan Fors ko'rfazi shimoliga qadar bo'lgan mintaqani ko'rsatmoqda va Eronning Zagros tog'lari g'arbini ham o'z ichiga olmoqda. Birinchidan, xayoliy mahsulot bo'lgan bu model kurdlarning fors, turk va arab qo'shnilaridan mustaqil bo'lishga bo'lgan harakatining bir ko'rinishidir. Ikkinchidan, bu Kurdistonni tashkil etish g'oyasiga muhim geosiyosiy va geostrategik makon baxsh etmoqda, ya'ni Hind va Atlantika okeanlarini O'rta Yer dengizi va Fors ko'rfazi bo'ylab bog'lash imkonini bermoqda. Uchinchidan esa O'rta Sharqning muhim neft va suv manbalarida o'z hokimiyatini o'rnatish imkoniyatini beradi.

Kurdlarning geosiyosiy jarayonlardagi o'rni haqida sharqshunos olim M.S.Lazerev shunday yozadi: "XX asrning boshlariga kelib, Yaqin Sharqning kurd mintaqasidagi geosiyosiy holatga ta'sir ko'rsatadigan yangi omil paydo bo'ldi. Bu- asosiy siyosiy maqsadi tarqalib yotgan kurdlarning hududini birlashtirish va yagona mazkazlashgan davlat yaratishga qaratilgan kurd mustaqillik harakatidir. Aynan shu omil kelajakda kurd masalasida hal qiluvchi rol o'ynay boshlaydi. U Yaqin Sharq mintaqasida yuqori mavqeni egallash uchun kurashda buyuk davlatlar tomonidan keng qo'llanildi[3]. Yaqin Sharq mintaqaviy davlatlari hududlaridagi kurdlar bir necha bor o'z milliy davlatchiligini qurish uchun harakat qilishadi. Ammo, bu harakatlar ba'zan mintaqaviy kuch markazlari tomonidan zudlik bilan bostirilishga sabab bo'lgan bo'lsa, ba'zan tashqi siyosiy aktorlar uchun bir vosita vazifasini o'tab, mintaqada yuz berayotgan jarayonlardan chetda qolmasligi, shuningdek, o'z milliy manfaatlarini qondirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovetlar bosib olingan Eronning shimoliy qismlarida kurdlarning Mahabad respublikasini de-fakto tashkil etishda yordam ko'rsatgan. Rossiya-Kurdlar munosabatlari haqida soha eksperti Saya Berzinjiy shunday yozadi: "O'zaro munosabatlar uchun tarixiy va psixologik sharoitlarning eng yaxshi ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Kurdlar Eron va Turkiya bilan kurashlarda Rossiyani o'z ittifoqchisi deb hisoblagan. Jumladan, 1916-yildayoq rus Kavkaz fronti bosh

qo'mondoni Nikolay Nikolayevich kurd yetakchisi Simkoni bilan mustaqil kurd davlatini tashkil etish uchun yaqindan ko'mak ko'rsatgan[4].

Tarixdan o'z milliy mustaqilliklari va alohida davlat tuzish uchun kurashayotgan kurdlar bir necha harakatlar va tashkilotlarga asos solishdi, biroq bu tashkilotlardan ma'lum bir qismlari yashab keta olishdi, xolos. Chunki mintaqadagi mavjud davlatlar tomonidan bunday tashkilotlar terroristik xarakterga ega deb hisoblangan. Lekin alohida mustaqil bo'lish uchun kurashayotgan kurd xalqi nazdida bunday harakatlar va tashkilotlar ularning tarixi, madaniyati, an'ana-yu urf-odatlar va etnik o'ziga xosligini saqlab qolish maqsadida tuzilgan uyushmalardir. Ikkinchi Jahon urushi davridagi siyosiy vaziyat kurdarga yagona mustaqillikka erishish uchun yo'l ochib berdi. 1941-yilda Sovet Ittifoqi va Buyuk Britaniya Shoh Rizo hokimiyatiga barham berish maqsadida Eronga hujum uyushtiradi. Bir necha kurdlarning hududlari SSSRning okkupatsiya zonasi deb tan olinadi. 1941-yilda Eron bo'ylab markaziy hukumatga qarshi isyonlar boshlanadi. Sovet Ittifoqi ta'siri ostida kurdlar va ozarlar mustaqillikdan bahramand bo'lib ko'radilar. Taxminan to'rt yil davomida ular o'zlarini samarali boshqarishadi va shu tariqa 1945-yilning dekabr oyida Eron hududida ikkita Respublikaga asos solishadi: Mahabad Kurd Respublikasi va Ozarbayjon Demokratik Respublikasi[5]. 1943-yil 16-avgustda esa o'nlab yosh kurdlar tomonidan Mahabadda "Kumala" nomi bilan tanilgan kurd millatchi tashkilotiga asos solinadi. A'zolik dastlab 100 nafardan kam bo'lgan va har ikki tomondan 22 nafar kurd ulushi bilan cheklangan. Harakat Eronda asos solingan bo'lsa-da, butun mintaqaga tarqaldi, jumladan Mosul, Kirkuk, Erbil va Sulaymoniyada bo'linmalari tashkil etildi[6].

Yana bir xorijlik kurdsunos tadqiqotchi Brigitte E. Hugh qaydlariga ko'ra, mintaqadagi kurdlar orasida Iroq kurdlari siyosiy hayotga nisbatan ancha faol hisoblanadi, ular 2017-yil referendum orqali o'z avtonom hukumatlarini tuzishga erishdi. Biroq regional hukumat maqomini qo'lga kiritgunlaricha bir necha og'ir bosqichlarni bosib o'tishga majbur bo'lishgan. Ayniqsa, Saddam Husayn boshqaruvi davrida "Anfal" operatsiyasida aholiga nisbatan kimyoviy qurol ishlatiladi va mintaqada kurdlar yashaydigan hududlarga arablarni joylashtirib, kurdlarni o'z yerlaridan siqib chiqarib, arablashtirish siyosatini yuritadi. O'sha vaqtda Saddamning shia va kurdarga qarshi harbiy harakatlarida AQSh to'siq bo'la olmaydi. Natijada M. Barzoni va J. Talaboniy AQSh prezidenti katta J. Bushga yordam so'rab murojaat qiladi. J. Talaboniy AQShga ham borib keladi, biroq Qo'shma Shtatlar uzoq vaqt betaraf bo'lib qoladi. Ammo, gumanitar falokat yoqasida qolgan kurdlar uchun BMT Xavfsizlik Kengashi 1991-yil 5-aprelda 688-sonli rezolyutsiya qabul qiladi va 36-parallel chiziq bo'yicha "xavfsizlik hududi" belgilanadi. Bu "xavfsizlik hududiga" kiruvchi Erbil, Sulaymoniya va Doxukdan Iroq armiyasi butunlay chiqariladi, markaziy organlar, maxsus xizmat va politsiya ishlari to'xtatiladi. Bu mintaqa "Ozod Kurdiston" deb nomlanadi[7].

Amerikalik olim Olson bu voqealarni tahlil qilgan holda quyidagicha yozadi: “bu kurdarning de-fakto kichik davlatini tashkil etish uchun muhim qadam bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan, aniqroq aytganda Yevropa va Amerikaning harbiylaridan iborat xalqaro kuchlar tarixda birinchi marotaba kurdarni himoya qilish uchun tashkil etildi”[8].

Iroqning Kurdiston mintaqasida birinchi umumiy saylov 1992-yil may oyida bo‘lib o‘tdi. Saylov natijasida Kurdiston Milliy Assambleyasi va Kurdiston mintaqasi tashkil topdi. Yangi paydo bo‘lgan de-fakto mintaqadagi hukumat Kurdiston mintaqaviy hukumati deb nomlandi. Kurdiston Demokratik partiyasi (KDP) va Kurdiston vatanparvarlik ittifoqi (PUK) o‘rtasida 50-50 kuch bo‘lish kelishuvi asosida tuzilgan. Biroq, KDP va PUK o‘rtasidagi hamkorlik qisqa vaqt davom etdi, chunki ikki partiya 1994-yildan boshlab kuch va resurslar uchun birodarlik urushini boshladi. Klinton ma‘muriyati Vashington tinchlik kelishuvi sifatida tanilgan 1998-yilda KDP va PUK o‘rtasidagi tinchlik bitimiga vositachilik qilgan. Shu vaqtdan boshlab ikkala guruh ham tinch-totuv yashab kelgan, ammo har biri o‘z ma‘muriyati va hukumatini saqlab qolgan[9].

Wilson aqliy markazining Yaqin Sharq mintaqasi bo‘yicha tadqiqotchisi Nathan Painterning fikriga ko‘ra, Iroq kurdlarining mustaqilligi uchun zarur bo‘lgan to‘rt element quyidagilardan iborat:

Birinchi, PUK va KDP birlikka ega bo‘lishi kerak. Ikkinchi, Iroq kurdleri Bag‘doddagi referendumda mustaqillik bo‘yicha ovoz berish uchun Iroq hukumati bilan hamkorlikka muhtoj va mustaqil Iroq Kurdistoni har ikki davlat uchun nimani anglatishini kelishib olishlari kerak. Uchinchi, Iroq kurdleri Suriya, Turkiya va Eronning mintaqaviy hamkorligiga muhtoj, ular o‘zlarining kurd aholisiga ta‘sirli tufayli mustaqillikka qarshi chiqishlari mumkin. To‘rtinchidan, Iroq kurdleri xalqaro, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tan olinishi kerak[10].

Ko‘plab tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kurdlar muammosini mag‘zini chaqishda uning geografik joylashuvi va aholisi ham alohida ahamiyatga ega. To‘rt qismga bo‘lib olingan “Kurdiston”da yashovchi kurdarning taxminiy soni 35 milliondan ziyodroqdir. Agar Kurdiston birlashtirgudek bo‘linsa, uning yer maydoni 500 000 kv km dan oshib ketadi. Boshqa so‘z bilan aytganda kurdlar etnik ozchilik emas, butun boshli millatdir, Kurdiston esa tuman yoki viloyat emas, balki Fransiya bilan teng davlatga aylanadi. Qisqa qilib aytganda, kurdlar muammosi u yoki bu davlatdagi etnik ozchilikning muammosi emas, balki bo‘linib ketilgan millat va mintaqa davlatlari muammosidir. O‘z navbatida geografik omil madaniy geografik, iqtisodiy geografik va siyosiy geografik omillarga bo‘linib ketadi. Mana shu to‘rt omil kurdlar muammosining yanada chuqurroq anglab yetishda katta rol o‘ynaydi[11].

Kurdlar etnik va madaniy jihatdan turklar va arablardan farq qilishadi. Ular o‘z tiliga, diniy e‘tiqodda ham o‘ziga xos alohida oqimlarga ega. Xuddi shu omillarni kurdlar mustaqil davlat uchun asos sifatida ko‘rsatib kelishgan. Bu omillar o‘z navbatida kurdlar yashaydigan mamlakatlar hukumatlari bilan ziddiyatlarni rivoj topishiga sabab bo‘lgan. Masalan, Turkiya hukumati turk

mafkrasiga to'g'ri kelmaydigan har qanday etnik birlik yoki diniy e'tiqodni milliy davlatga xavf sifatida ko'rib kelgan. Saddam Husayn esa kurdlarni "buyuk arablar shon-shuhratiga"ga rahna soluvchi kuch ekanligiga ishongan. Shu sababli u kurdlarga qarshi keng qamrovli keskin kurashlar olib borgan.

Kurdlar hududlari Turkiya va boshqa arab davlatlariga neft va gaz zaxirasi uchun zarurdir. Shuning uchun to'rt davlat kurdlar hududlarini qo'ldan boy berishni istamaydi. Ayniqsa, bu omilda Iroqni alohida tilga olish zarur. Sababi AQSh Iroqqa kirgunga qadar mamlakat iqtisodiyotiga bir qancha embargo va sanksiyalar qo'yilgan edi. Bundan faqat Iroq Kurdistoni mustasno bo'lib, Saddam Husayn hokimiyatdan ag'darilgandan so'ng Iroqning iqtisodiy jihatdan oyoqqa turib olishiga bu hudud juda zarur edi.

Boshqa tomondan kurdlarning o'zaro ijtimoiy-siyosiy muammolari ham bor. Ularning siyosiy hayotda qarashlari bir-birini inkor etadigan turli kuchlari mavjud. Bu siyosiy kuchlar kurd muammosini hal etishda yakdil fikrga ega emaslar. Zero, kurdlarning o'zi siyosiy jihatdan ikkiga, balki undan ham ko'p qarama-qarshilikka bo'linib ketishgan.

### XULOSA

Umuman, kurdlarni o'rganishga bag'ishlangan xorijiy ilmiy izlanishlar uning etnik, etnosiyosiy, geografik hamda geosiyosiy jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Ammo, xorijiy ilmiy izlanishlarda muammoning xalqaro huquqiy asoslariga kam urg'u beriladi. Agar bu hududda alohida Kurdiston mustaqil davlati tuziladigan bo'lsa, bu kabi holatlar xalqaro huquqdagi davlatlarning hududiy yaxlitligi va chegaralar daxlsizligi tamoyillarini buzgan holda, mintaqaning geosiyosiy arxitekturasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bizningcha, kurdlar muammosini hal etish asoslari ham aynan xalqaro hamjamiyat tomonidan yakdil qabul qilingan xalqaro huquqiy yondashuvni ishlab chiqishga chambarchas bog'liq. Bu boradagi tadqiqot ishlarini kuchaytirish zarurati shu sababli ham dolzarb ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stefano, M. (2016) Kurdistan An Invisible Nation. ISPI., p.18.
2. David, M. (2005) Modern History of the Kurds ( 3<sup>rd</sup> ed.). London, I.B. Tauris, p.6.
3. Лазарев, М. (2005) Курдистан и курдский вопрос (1923-1945). Москва, с. 310.
4. Saya Berzinji (June, 2020) Between Dreams and Reality: Understanding Perceptions Towards an Independent Kurdistan. WAGENINGEN UNIVERSITY & RESEARCH, p.22.
5. Ayed, T. (May 1987) The struggle for political independence: A case of Kurds, Master of arts in political science, The university of Texas, p.24-25.
6. Alfred, P. (June, 1962) The development of Kurds in Iraq since Ottoman conquests, Masters of arts in the department of history, The American University of Beirut, p.78.

7. Brigitte, E. (2020) Perpetuating Peace: Context versus Contents of the Power-sharing Agreements Between the KDP and PUK of the Kurdistan Region of Iraq in 1992 and 1998, Master of science, Utah State University, p. 22.
8. Olson, P. (1992) The Creation of a Kurdish State in 1990? Journal of South Asian and Middle Eastern Studies XV N4, Summer, p. 11.
9. Niyaz, B. (August,2012) The Feasibility of an independent Kurdish state in Iraq, Master of arts in political science, University of Texas, p.35.
10. Nathan, P. (September 14, 2016) From Tribe to Nation: Iraqi Kurdistan on the Cusp of Statehood. Retrieved from <https://www.wilsoncenter.org/event/tribe-to-nation-iraqi-kurdistan-the-cusp-statehood>
11. Shahin Hossin (2009) Determinants of Foreign Direct Investment in Kurdistan Region (North of Iraq, Nottingham Business school, p.151-152.